



**AKSIOLOGIK LISONIY BIRLIKLARNI KONSEPTUAL
TAHLIL ETISH MASALASIGA DOIR**

Pardayev Zafar

dotsent, filologiya fanlari nomzodi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika institute

(Chirchiq, O'zbekiston)

E-mail: pzafar441@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola aksiologik mazmundagi lisoniy birliklarning konseptual tahliliga bag'ishlangan. Baho ifodalovchi til vositalarini lingvopragmatikasini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Konseptual tahlil bugungi kunda sotsiolingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya kabi bir qator zamonaviy soha mutaxassislarining tadqiqotlarida asosiy mavzulardan biri. Muloqot jarayonida obrazli-ekspressiv til vositalarining, so'zlovchining adresat bilan emotsional munosabati kabi masalalarni o'rganish uchun ham muhim va dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada o'zbek badiiy matnida aksiologik baho ifodalovchi lisoniy birliklarning turli sharoitlarda, muayyan tamoyillar asosida, har xil vaziyatlarda turli maqsadlar bilan kognitiv paradigma asosida lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Kognitiv paradigma, konsept, konseptosfera, konseptuallashuv, aksiologiya, baho, ekspressiv baho, illokutiv nutqiy akt, perlokutiv akt, nutq vaziyati, predikat, denotativ ma'no, konnotativ ma'no.

Ma'lumki, har bir xalqning tili uning tarixiy taraqqiyotidagi eng noyob va mukammal boyligidir. Tilda xalqning taqdiri, yashash tarzi, urf-odatlar, dini, ma'naviy boyligi yorqin



aks etadi. Til xalq, millat madaniyatining betakror ajralmas qismi va ko'zgusidir. Har bir tilda shu til egasi bo'lgan millat ruhiyati yorqin ifodasini topadi. Til nafaqat muloqot va ta'sir etish vositasi, balki aksiologik madaniyatni o'zlashtirish, madaniy ahamiyatga ega ma'lumotlarni qabul qilish, saqlash va uzatish vositasi hisoblanadi. Shuning uchun ham lisoniy mentalitetning eng muhim xususiyatlaridan biri – uning etnospecificligidir. Mentalitetning ushbu o'ziga xos xususiyatini hisobga olib N. I. Tolstoy shunday yozgan edi: “Til har doim etnosning eng yorqin xususiyati hisoblangan, hatto Pifagor ham har qanday xalqning urf-odatlarini bilish uchun, birinchi navbatda uning tilini o'rganish kerakligini aytgan”[1]. Shu sababli har bir xalq ona tilining sofliqi, kamoloti va rivoji uchun tinmay qayg'uradi.

Zamonaviy tilshunoslikda verbal vositalar yordamida fikr ifodalash zamirida aslida botiniy nutq yotishi va bu bir nechta bosqichdan iborat bo'lgan kognitiv jarayonni tashkil etishi fanda o'z isbotini topgan. Darhaqiqat, har qanday nutqiy harakatning boshlanish nuqtasi dastlab so'zlovchi kommunikativ niyatiga borib bog'lanadi. So'zlovchining avvalo ongda shakllanuvchi maqsadi ma'lum tartib asosida lisoniy birliklarni tanlash va nutqda voqelantirish bosqichlariga yo'l ochadi. Ongda kechuvchi fikrlash jarayoni bo'lgan ichki nutq konseptning lisoniy ifoda etishini ta'minlaydi.

Konsept ma'lum bir moddiy yoki ideal nutq obyektining ongdagi obrazi va lisoniy birliklar orqali ifodalanishida o'zaro mos kelishidir[2]. Konsept ifodasi lisoniy birliklar vositasida yuzaga chiqishidan oldin ongda kechuvchi ichki nutq jarayonida voqelikning inson tasavvuridagi modeli sifatida ma'lum mazmun shaklini oladi va konseptualashuvning keyingi bosqichida esa ifoda uslubi hamda lisoniy vositalar belgilab olinadi. So'zlovchi xotirasidagi lisoniy birliklar jamlanmasi mazkur konseptning asosini tashkil etadi. Tilshunos A.A.Leontev bu jarayonning amalga oshishida subyekt, predikat, obyekt kabi asosiy komponentlarning munosabatini ko'rsatib berishga harakat qilgan edi [3].



Kognitiv lingvistikada konsept birlamchi aniq obraz sifatida tushuniladi. Konsept tushunchasini E.S.Kubryakova ongning mental va psixik resurslari, axborot tuzilishi birligi[4], N.D.Arutyunova amaliy falsafa tushunchasi[5], V.P.Moskvina qadriyatni ifodalovchi sinonimlarga ega ibora[6], V.M.Pimenova olam fragmenti bo‘lagi haqidagi tasavvur[7], S.G.Vorkachev sintetik lingvomenta hosila[8] tarzida izohlashga harakat qiladilar. Bu borada olib borilgan kuzatishlarni umumlashtirganda konseptning obrazli, tushunchali, qadriyatli o‘lchovlariga ega bo‘lgan mental hosila ekanligi ma’lum bo‘ladi. Obrazli deyilganda, nutq obyektining inson sezgilari yordamida idrok qilinishi mumkin bo‘lgan xotiramizdagi tavsifi tushuniladi. Konseptning tushunchali tomoni uning lisoniy voqelanishi, tasviri hisoblanadi. Konseptning so‘zlovchi hamda u mansub bo‘lgan jamiyat uchun qay darajada ahamiyatli bo‘lgan tushunchani anglatishi uning qiymati bilan bog‘liq tomonlarini belgilab beradi. Shunga ko‘ra u mentallik kasb etadi. Masalaning ana shu jihatlarini hisobga olgan S.G. Karasik “konsept aniq lingvokulturologik tushunchadir[9]” degan qarashni olg‘a suradi.

Sh.Safarov ta’kidlaganidek, insonning voqelik faktlarini idrok etishi tufayli paydo bo‘lgan tushuncha konsept sifatida shakllanishida lisoniy ong (xotira) muhim o‘rin tutadi. U birgina til birliklari va kategoriyalari haqidagi ma’lumotni saqlovchi psixik tuzilma bo‘libgina qolmay, balki nutqiy faoliyatda zarur bo‘luvchi axborotni tezda topish, qo‘llash manbai ham hisoblanadi[10]. Demak, konsept – turli xil lisoniy birliklar orqali mazmuni realizatsiya qilinadigan jamlanma, ya’ni asosiy fenomendir.

Bugungi kunda konseptning mohiyati va namoyon bo‘lishini lingvokognitiv tahlil etish metod va usullari juda ko‘p bo‘lib, ular ichida ikki asosiy yo‘nalish ajralib turadi. Birinchi yo‘nalishga mansub tadqiqotchilarning fikricha, bu jarayon konseptni va uning ifodalanishida ishtirok etuvchi til vositalarini tanlash hamda ularni tahlil qilishdan iborat. Ikkinchi yo‘nalish olimlari esa tadqiqotni turli matnlarda qo‘llaniluvchi asosiy so‘zni belgilab olishdan boshlash lozim, deb hisoblaydilar. Bu esa mazkur so‘zning ma’nosini,



uning qo‘llanish jarayonida yuzaga chiquvchi semantik belgilarini aniqlash imkonini beradi. Semantik belgilarni aniqlash leksik yoki frazeologik konseptni shakllantiradi. Bu ikki yondashuv ham ahamiyatli va bir-birini to‘ldirib turadi.

Konsept ifodalanishida ishtirok etuvchi lisoniy vositalar mohiyatini o‘rganish orqali inson konseptning tuzilishi haqida ma’lum tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Ammo bu konseptning ma’lum qismi hisoblanadi. Chunki hech qanday konsept nutqda to‘la namoyon bo‘lolmaydi. Konsept bo‘lgan leksik birliklar soni cheklangan, chunki hodisaning har qanday tasviri ham konsept emas. Faqatgina ma’lum xalq madaniyati uchun dolzarb va qadriyatli bo‘lgan va voqelanishi uchun katta miqdordagi leksemalar, frazeologizmlar, maqol kabi lisoniy birliklarga ega haqiqiy hodisalargina konsept bo‘lishi mumkin. Demak, konsept tuzilishini tahlil etishda uning yadrosi (asosi) hamda periferiyalari aniqlanadi. Konsept asosi bu UPK (universal predmet kodi) obrazi va yadro (asosiy) so‘z (kognitiv belgilar hosil bo‘lishida semantik, pragmatik qatlamlanish va kognitiv segmentlar uyg‘unligi)dan tashkil topadi. Konsept periferiyasi esa uning voqelanish maydonini hosil qiladi. Konseptning tuzilishini izohlash jarayonida uning komponentlarini aniqlash muhim hisoblanadi, chunki ong tuzilishi va fikrlash jarayonida ularning mavqesi turlicha bo‘ladi.

M.V.Pimenovanning fikricha, bu yo‘nalishdagi tadqiq metodikasi konseptning u yoki bu xususiyatini aniqlashtiruvchi qurilmalar ma’nolari namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi va shu asosda o‘rganilayotgan konseptning umumiy tipologik belgilarini izohlash uchun muhim ahamiyatga ega. Keyin tadqiq metodikasiga ko‘ra konsept tuzilishi, kognitiv modellari lisoniy faolashuvini ifodalovchi sxemalar ajratiladi. Konseptual tuzilishni tadqiq etish uni shakllantirishda ishtirok etuvchi predmet yoki hodisaning mohiyatini, belgisini to‘laroq tushunish va aniqlash imkonini beradi. Konsept tuzilishi – bu predmet yoki hodisani olam manzarasining bir ko‘rinishi sifatida o‘rganishda lozim bo‘lgan umumlashgan belgilar yig‘indisi hisoblanadi. M.V.Pimenova konseptni o‘rganishni bir necha bosqichda olib borishni taklif qiladi. Birinchi bosqich – konseptni namoyon qiluvchi



soʻzning ichki shakli va lugʻaviy maʼnosini tahlil etish. Ikkinchi bosqich – konseptni ifodalovchi leksemalar sinonimik qatorini aniqlash. Uchinchi bosqich – olam lisoniy manzarasida konseptning kategoriyalashish usullarini tasvirlash. Toʻrtinchi bosqich – koʻchimlar asosida konseptlashish usullarini aniqlash, konseptual metafora va metonimiyalarni tadqiq etish[7].

Har qanday til olam manzarasini oʻziga xos tarzda tasvirlaydi va idrok qiladi. Shuning uchun ham konseptuallashtirishda ham oʻz yoʻli bor. Til inson bilimining shakllanishi, olamni anglash vositasi sifatida muhim omil hisoblanadi. Inson borliqni bilish, idrok etish jarayonida ushbu voqelikka singib ketadi, oʻzlashtirilayotgan bilimni tushunish, konseptuallashtirishga harakat qiladi.

Konsept milliy tilning oʻziga xos muhim xususiyati boʻlib, unda tarixiy tajriba natijasida oʻsha xalqning hayot tarzi va milliy madaniyati kabi oʻziga xos xususiyatlari aks etiriladi. Har bir xalq oʻzicha dunyoning koʻp qirraligini koʻradi, oʻzicha buni dunyo qismlari deb nomlaydi. Insonlar til orqali oʻziga xos dunyo yaratadi. Olam manzarasini biz borliq ham, deb bilamiz. Til anglash jarayonini ifodalaydi. Olamning konseptual manzarasi insonlarda turlicha boʻladi, masalan, har bir davr namoyandalari, turli jamoaviy (sotsial), yosh guruhlari har xil dunyoqarashga ega boʻlgan. Insonlar har xil tilda gaplashadi, turli xil sharoitlarda yashaydilar. Turli xalqlarda olamning konseptual manzarasi har xil boʻladi. Bundan kelib chiqadiki, dunyoning konseptual manzarasi umuminsoniy, milliy va xususiy taʼsirga ega.

Konseptuallashtirish jarayonida turli sath lisoniy birliklari, yaʼni soʻzdan matngacha teng huquqli pozitsiyaga ega boʻladi. Ular lingvistik baholash xususiyatlari bilan oʻzaro farq qiladi, ammo lisoniy shaxsning kognitiv ongida oʻrnashib qolgan umumiy mazmun bilan birlashadi. Turli tillar va madaniyatlardagi konseptning mazmuni, shuningdek, asosiy umumiy mohiyatini ifodalasa-da, oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻladi. Misol uchun, turli til madaniyatlarining maʼnaviy fonida goʻzallik konsepti aksiyologik qadriyat sifatida



universal, hatto ifoda modeli va ba'zi universal qirralarini saqlab qolgan bo'lsa ham milliy o'ziga xosligi jihatidan farq qiladi. Go'zallik konseptual maydoni haqida qarashlar – turli xalqning madaniy an'analari bilan chambarchas bog'liqdir va ular leksemalar, so'z birikmalari, frazeologizmlar, maqol va hikmatli so'zlar vositasida ifodalanadi. Chunki go'zallik keng qamrovli tushuncha bo'lib, u tabiatda, jamiyatda va insoniy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Masalan, inson go'zalligi turli xalqlarda har xil idrok qilinadi. Ularning aksariyatida muammoga axloqiy jihatdan yondashish ustuvorlik qiladi. Shunga qaramay, turli madaniyatlarda inson go'zalligini umumiy holda: tashqi ko'rinishi, bevosita va bilvosita axloqiy xatti-harakati va axloqiy fazilatlari, nafosati va axloqi orqali belgilaydi. Bu shundan dalolat beradiki, turli madaniyatlarda go'zallikning inson qiyofasidagi ko'rinishida yagona, mutlaq va tugal timsol (namuna) mavjud emasligi bilan xarakterladi. Masalan, ayol go'zalligini idrok etish xalqlarda turlichadir. Qadim patriarxal va matriarxal davri odamlarining tasavvurida ayolning go'zalligi katta qorin, keng dumg'aza hamda ko'krakning tortib turishi bilan ifodalanagan. Afrika savannalaridagi qabilalarning birida ayolning bosh shaklining cho'ziqligi go'zallik sanalgan. Shuning uchun qizlarning yoshligidan peshonasi atrofiga yassi toshlar bog'lab yil davomida u siqib, tortib turgan. Natijada bosh kerakli «qiyofa»ga tushgan, boshi qancha qilib cho'ziq bo'lsa shu ayol shuncha go'zal hisoblangan bo'lsa, boshqa qabilasida yoshligidan qizlarning iyagiga ma'lum vaqt tosh osib osib yurilgan, u qabilada iyakning cho'ziqligi go'zallik sanalgan. Yana bir xalqlarda qizlarning yoshligida oyoq barmoqlari mahkam qon o'tmaydigan holda bog'lab, barmoqlar uzilib tushgancha shu ahvolda turgan. Ular uchun maymoqlanib yurish harakati go'zallik deb qaralgan. Sharq xalqlarida, jumladan o'zbeklarda esa *sog'lomligi*, ya'ni, qizil yuzli, qizil labli, tik qomatlik, kiprik va sochining qoralligi hamda *uzunligi*, *rangining tiniqligi*, *ko'zi qoraligi*, estetik jihatdan esa nafosatli, xarakter jihatdan ibosi, hayosi ayol go'zalligi deb baholandi.



O‘simliklar dunyosi obyektlarining ko‘p qirradi va semantik tasnifi inson bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu bog‘liqlik baholovchi subyekt tomonidan baholash obyektini o‘simlik bilan qiyoslashda namoyon bo‘ladi. Bunda inson hayotini (baholash obyekti) o‘simliklar hayoti bilan ko‘r-ko‘rona qiyoslash emas, balki o‘simliklar o‘sishi hamda rivojlanishida insonning dunyoni idrok etishiga xos qirralarini aniqlash amalga oshiriladi[11]. Badiiy adabiyotda ayol go‘zalligini ifodalash uchun baholovchi ayrim fitonimlardan foydalaniladi: *sumbulsok, sarvqomat, sarvboy, nargis ko‘z, gulyoz, nilufardek, yuzi olmadek qizil, anor yuz* kabi.

Ma‘lumki, sharq mumtoz adabiyotida ayol qaddining go‘zalligi sarv daraxtiga o‘xshatiladi hamda poetik vosita sifatida keng qo‘llanilganini kuzatishimiz mumkin. O‘zbek tilining izohli lug‘atida sarv - janub mamlakatlarida o‘sadigan, igna bargli, doim yashil tik daraxt[12] deb izohlangan. Demak, uning boshqa daraxtlarga nisbatan tik o‘sganligi, o‘zidan muattar hid taratganligi inson qomatining go‘zalligini eksplisit tasvirlashga imkon yaratadi: *Atoiy sen kimu ul sarv qomat // Ilik yetmas, ne hosil qo‘lni sinmoq. (Atoiy); Boying sarvu, ko‘zing nargis, yuzing gul // Sening qoshingda bo‘ston hojat emas. (Atoiy).*

Yuqoridagi she‘rda sarvboy, nargis ko‘z, gul yuz fitonimli birikmalar qo‘llanilib, ayol qiyofasi go‘zalligini tasvirlashga vosita bo‘lgan. Quyidagi misolda esa sarv daraxtining boshqa biologik belgisi - muattar hidi go‘zallik komponenti sifatida baholangan: *Boying sarvu, sunuvbardek, beling qil // Vafo qilgan kishilarga vafo qil. (Atoiy)*

Olamning lisoniy manzarasi logik tarzda inson ongi bilan bog‘liqdir. Bu holat tillardagi frazeologizmlar, maqol va aforizmlari shakllanishini taqqoslaganda yaqqol sezish mumkin. Tilda dunyo manzarasini in‘ikos etish, tasvirlashda, insonning amaliy ehtiyoji yotadi. Insonning kognitiv idrok qilishi uchun pragmatik ekosentrizm strukturasining faoliyati juda qulay. Chunki inson o‘zini o‘rab turgan olam manzarasini ongi orqali o‘zlashtiradi va orzu-armonlari, intellektual faoliyati hamda hissiyotlarini til bilan ifodalaydi. Demak, dunyoning til manzarasi antroposentrizm modelini o‘zida



mujassamlashtiradi. Shunday qilib dunyoning til manzarasi muammosi, konseptual til manzarasi muammosi bilan zanjirsimon shunday bog‘langanki, ushbu muammo bilan kognitiv lingvistika shug‘ullandi.

Ko‘rinadiki, tilshunoslikda konsept tushunchasining mohiyatini ochib berishda va uning tuzilishini belgilashda olimlarning fikrlari bir xil emas. Konseptni tahlil qilish usul va vositalarini ishlab chiqish kognitiv lingvistikaning dolzarb masalalaridan bo‘lib, bu mazkur yo‘nalishda kengroq tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi.

Adabiyotlar:

1. Толстой Н. И. Этнолингвистика в кругу гуманитарных дисциплин // Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология. М., 1997. С. 312.
2. Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь. – Ростов-на-Дону:Феникс.2008. – С. 264.
3. Психоллингвистический единицы и порождение речевого высказывания. –М: Наука, 1969. - С.169.
4. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Лузина Л.З., Панкрац Ю.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. -М., 1996. –С.90.
5. Арутюнова Н.Д.Логический анализ языка. Ментальные действия.-М.,1993.-С.3.
6. Москвин В.П.Семантическая структура и парадигматические связи полисеманта (на примере слова судьба). Лексикографический аспект.-Волгоград, 1997.-С.23.
7. Пименова М.В.Методология концептуальных исследований // Антология концептов. Том 1. -Волгоград, 2005.-С.16.
8. Воркачев С.Г.Постулаты лингвоконцептологии // Антология концептов.Том 1. -Волгоград, 2005.-С.10.
9. Карасик С.Г. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. –. Волгоград: Перемена, 2002. - С. 231.



10. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангзор. 2007. – Б.18-19.
11. Пардаев З. Фразеологизмларда баҳо муносабатининг ифодаланиши ҳақида // Ўзбек тилшунослиги масалалари. Илмий мақолалар тўплами. - Самарқанд. 2008 йил. 52-55-бетлар.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 3-жилд. -Еўшкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси., 2006. -Б..447.